

IBORALARNING NUTQ JARAYONIDA IFODA ETILISHI VA O'GATILISHI

Rajabova Sarvinoz Chori qizi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 3- bosqich talabasi. Telefon raqami : 94 843 12 20

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi iboralarning lug‘aviy va uslubiy xususiyatlari, ularni nutqdagi o‘rni hamda ma’no ifodalashdagi ro‘li tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek iborlarning kontekstga bog‘liqligi va ularni o‘rgatishning samarali usullari haqida fikr yuritiladi. Ushbu tadqiqot umumta’lim maktab o‘qituvchilari va oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Iboralar, frazeologik birlik, turg‘un birikma, iboralar o‘rtasida omonimlik va antonimlik xususiyatlari, “iboralar sandig‘i” metodi

Til inson tafakkurining ko‘zgusi, jamiyat madaniyatining asosiy ko‘rinishlaridan biridir. Har bir xalqning tili o‘ziga xos leksik boyliklari, jumladan, iboralar orqali yanada go‘zallashadi va chuqur mazmun kasb etadi.

Ibora—ikki va undan ortiq leksemaning semantik-sintaktik birlashuvidan tarkib topgan, shaklan birikma yoki gapga teng bo‘lgan, ko‘chma ma’noli turg‘un (barqaror) qurilma¹. Iboralar, frazeologik birlik, turg‘un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamalari bilan ham yuritiladi. O‘quvchilar lug‘at boyligining muhim qismini ibora va tasviriy ifodalar tashkil etadi. Ibora, odatda, bir so‘zga teng keladigan so‘zlar qo‘silmasi bo‘lib, u nutqimizni boyitadigan, go‘zzallashtiradigan va ta’sirchanligini oshiradigan muhim vositalardan biri sanaladi. **So‘zlovchi o‘zining bilim darajasiga ko‘ra, notiqlik san’ati va mahoratiga qarab, o‘z fikrini ifoda qilishda omonim, sinonim va antonim lardan o‘z xohish-istagiga qarab foydalanishi mumkin.**

¹

Frazeologik sinonimiya - bir necha frazemaning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashib kelishi. Masalan: 1) *pixini yorgan* – «ayyor», 2) *ilonning yog 'ini yalagan* – «ayyor» kabi. Yana: 1) *yer bilan osmoncha* – «Juda katta farq», 2) *ot bilan tuyacha* – «Juda katta farq» kabi.² Leksik sinonimiyada bo'lganidek, frazeologik sinonimiyada ham sinonimik qatorlar yuzaga keladi: birinchi misoldagi *pixini yorgan* va *ilonning yog 'ini yalagan* frazemalari «ayyor» ma'nosi bilan bitta sinonimik qatorni; ikkinchi misoldagi *yer bilan osmoncha* va *ot bilan tuyacha* frazemalari esa «juda katta farq» ma'nosi bilan bir sinonimik qatorni hosil qilmoqda. Frazeologik antonimiya –ikki frazemaning o_zaro zid ma'no ifodalashi: *oshig 'i olchi va ishi o'ngidan kelmaslik*; *boshi ko 'kka yetmoq va fig 'oni falakka chiqmoq* kab.³ O'quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadida berilgan iboralarni so'zlar bilan almashtirish yoki, aksincha, so'zlar o'rnida iboralarni qo'llash, iboralarning ma'nosini sharhlash, berilgan iboralarga qarama-qarshi ma'noli iboralar tanlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Quyida maktabda hozirda amalda bo'lgan 6-sinf ona tili darsligida “Ko‘z nurimizni asraylik” mavzusida iboralarga oid ana shunday topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:⁴

I-topshiriq. Quyidagi iboralar ma'nosini lug'atlardan, oila a'zolaringizdan aniqlab, yozing. Qanday vaziyatlarda qo'llanishini bilib oling.

Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq, Ko‘ziga issiq ko‘rinmoq

Ko‘z tashlamoq, Ko‘ziga cho‘p solmoq

Ko‘zi pishmoq, Ko‘z yummoq

2

3

4

Albatta bu topshiriqlar o‘quvchilarni og‘zaki nutqini rivojlantirishga va lug‘at bilan ishslash ko‘nikmasini oshirishga qaratilgan. Keyingi topshiriq ham iboralar mavzuga oid.

2-Topshiriq. Tana a’zolari nomi ishtirok etgan iboralardan topib, yozing. Bu topshiriq o‘quvchilarni kreativligini oshiradi, ijodiy fikrlaydi va o‘zgacha yondashadi.

Men bu topshiriqlarga qo‘srimcha tarzda bir nechta yordamchi topshiriqlar tavsiya etmoqchiman.

1 Vaziyatli topshiriq. Bu topshiriq o‘quvchilarda tasavvurni kengaytiradi va og‘zaki nutqni ham rivojlantiradi.

Tana a’zolari ishtirok etgan iboralardan qatnashтирib 4-5 gap tuzing.

2 O‘zingiz topgan iboralarni, sinfdoshlarining topgan iboralar bilan solishtirib ularni o‘rasidagi zid ma’no va shakldoshliga e’tibor bering.

Bu topshiriqlar o‘quvchilarga ona tili mashg‘ulotlarida iboralar lug‘atini tuzdirish, iboralarning zid ma’noli, muqobil ibora yoki so‘z birikmalari tanlash kabi mashqlardan foydalanishni o‘rgatish ham so‘z boyligini oshirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6-sinf o‘quvchilari uchun ushbu mavzuning uyga vazifa qismi quyidagi topshiriq berilgan.

Iboralar lug‘atidan o‘zingizga yoqqan 6 ta iborani yozib oling. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.⁵

Berilgan topshiriqning o‘rniga “Iboralar sandig‘i” metodidan foydalangan holdagi topshiriq o‘quvchilar qiziqishlar va yoshlari mos deb o‘ylayman.⁶

5

6

Ibora ifodalagan ma 'no qatorini "Iboralar Sandig'i" dan mosini tanlab to 'ldiring.

lapashang,

bemehr,

aralashmoq,

xafa, ...

xursand,

tanti,

ziqna,²⁴¹

gapirmaslik, ...

ammamning buzog'i	burnini tiqmoq	ko'ngli xira	bag'ri tosh
fe'li keng	terisiga sig'maydi	og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadi	dili xufton
boshi osmonda	diydasi qattiq	ko'nli yorishmagan	og'zi qulog'ida
qovog'i etagida	gapida turadigan	fe'li tor	qovog'i soliq
burganing ko'zini ko'rgan	mum tishlamoq	lom-mim demaslik	qishda qor bermaydigan

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, frazeologik birikmalarning nutq jarayonida tutgan o'mini alohida qayd etish lozim. Ularning ma'nolari lo'nda hamda ta'sirchan, stilistik jihatdan ham bo'yoqlarga boy bo'lib, nutqning rang-barangligini ta'minlaydi.